

maqbul investitsiya muhitini shakllantirish (Farg‘ona vodiysi viloyatlari misolida). Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. - Toshkent, 2010.

3.O‘zbekiston Milliy Enseklopediyasi.T.:”O‘zME” davlat ilmiy nashriyoti. 2002, 4-tom, 145-B

4.B.Mamatov, D.Xo‘jamqulov, O.Nurbekov. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik., Toshkent, “Iqtisod-moliya”, 2014

5.Tuxliev N., Xaqberdiev Q., Ermamatov Sh., Xolmatov N. O‘zbekiston iqtisodiyoti asoslari. - T: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2006. - 233-b

6. Музаффарова, К. З. (2022). Қашқадарё вилоят иқтисодиётига хорижий инвестициялар жалб этиш омиллари. IN. In *international conferences* (Vol. 1, No. 18, pp. 131-134).

7. Muzaffarova, K., & Abdukarimov, K. (2022). Factors influencing the formation of the investment environment in the regions. *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, 2(5), 278-28.

8. Muzaffarova, K. (2021). Қашқадарё вилоятининг инвестицион салоҳияти асосида хорижий инвестицияларни жалб қилишнинг минтақавий жиҳатлари. *Архив научных исследований*.

9. Salyaevich, J. Q., & Pardaev, O. C. (2021). Digital Transformation: The Role of a Digital Platform based on Business Model. *Middle European Scientific Bulletin*, 10, 280-284.

10. Normamatov, I. B. (2022). Ways to ensure continuation of payments in the interbank payment system. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(6), 1162-1167.

PREVALENCE, EARLY DETECTION AND PREVENTION OF ARRHYTHMIAS

Uktamova Rukhsora Utkirjon kizi

Bukhara State Medical Institute, Named Abu Ali ibn Sino

Republic of Uzbekistan, Bukhara

Abstract: Heart rhythm disturbances are called arrhythmias. In medicine, there are two types of this phenomenon: a separate disease and those that occur in healthy people. In fact, the heart beats more than 100,000 times in 24 hours. The word arrhythmia comes from the Greek word aritmos ("a" - no, "rhythmos" -

rhythm) and is a general term for all heart rhythm disturbances. Previously, when we thought of cardiovascular diseases, we imagined people over 40-50 years old. Today, heart-related diseases are also found among people aged 25-30.

Keywords: arrhythmia, children, electrocardiography, shortness of breath, automatism, sick sinus syndrome, impulse, ablation.

РАСПРОСТРАНЕННОСТЬ, РАННЕЕ ВЫЯВЛЕНИЕ И ПРОФИЛАКТИКА АРИТМИЙ

Уктамова Рухсора Уткиржон қизи

*Бухарский государственный медицинский институт
имени Абу Али ибн Сино, Республика Узбекистан, город Бухара*

Аннотация: *Нарушение сердечного ритма называется аритмией. В медицине это явление рассматривается как отдельное заболевание и выделяют виды, встречающиеся у здоровых людей. Фактически, сердце бьется более 100 000 раз за 24 часа. Слово аритмия происходит от греческого слова aritmos («а» — нет, «ритмос» — ритм) и является общим термином для всех нарушений сердечного ритма. Раньше, когда это называли сердечно-сосудистыми заболеваниями, мы представляли себе людей старше 40-50 лет. Сегодня 25-30-летние люди также страдают сердечно-сосудистыми заболеваниями.*

Ключевые слова: *аритмия, дети, электрокардиография, одышка, автома-тизм, синдром слабости синусового узла, импульс, абляция.*

ARITMIYALAR TARQALGANLIGI, ERTA ANIQLASH VA PROFILAKTIKASI

O'ktamova Ruxsora O'tkirjon qizi

*Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro Davlat Tibbiyot Instituti oilaviy tibbiyotda
ichki kasalliklar kafedrasi asisstenti*

Annotatsiya: *Yurak urish maromining buzilishi – aritmiya nomi bilan yuritiladi. Tibbiyotda mazkur hodisaning alohida kasallik sifatidagi ko`rinishi hamda sog`lom insonlarda uchraydigan turlari mavjud. Aslini olganda, yurak 24 soat davomida 100 000 martadan ko`proq qisqaradi. Aritmiya so`zi yunoncha aritmos («а» - yo`q, «ritmos» – marom) so`zidan olingan bo`lib, barcha yurak maromi buzilishlari uchun umumiy atama hisoblanadi. Ilgari yurak qon-tomir*

xastaliklari deyilganida 40-50 yoshdan oshgan insonlarni tasavvur qilganmiz. Bugunga kelib esa 25-30 yoshlilar orasida ham yurak bilan bog`liq kasalliklar uchrab turibdi

Kalit so`zlar: aritmiya, bolalar, elektrokardiografiya, nafas qisilishi, avtomatizm, sinus tuguni holsizligi sindromi, impuls, ablyasiya.

Jahon sog`liqni saqlash tashkiloti (WHO) ko`rsatkichlariga qaraganda aritmiyalar yurak kasalliklarining ichida o`z xarakteristikasi bilan ajralib turadigan va yuqori ko`rsatkichlarni egallaydigan kasallikdir. Dunyo bo`yicha har yili 17 000 000 odam yurak xastaliklari bo`yicha vafot etadi. Shundan xu-losa qilish mumkinki bu kasallik o`limlar statistikasi bo`yicha ham yuqori ko`r-satkichni egallaydi. O`zbekiston respublikasi Sog`liqni saqlash vazirligi tomo-nidan berilgan ma`lumotlarga ko`ra ham aritmiyalar boshqa kasalliklarga qara-ganda yuqori o`rinni egallaydi.

Yurak inson organizmidagi eng muhim a`zo desak mubolag`a bo`lmaydi. Yurak faoliyatining buzilishi, yurak mushaklarining asosiy xususiyatlari qo`zg`alish, o`tkazish va avtomatizmi buzilishi natijasidagi, yurak urushi tezligi va takror-lanib turishini buzulishi bilan namoyon bo`ladi. Yurak mushaklarining bunday xususiyatlarining buzulishiga turli travmlar, bosh miya o`smalar va boshqa ka-salliklari natijasida markaziy asab tizimining o`zgarishlaridagi, shuningdek yurakning reflektor boshqarilishining buzulishidagi, patogen omillarning mio-kardni shikastlashiga sababchi bo`lishi mumkin. Odatda buzulishning turli me-xanizmlari bir-biriga qo`shilib ketadi. Masalan, qon tarkibini o`zgarishi vaqtida kardiomiositlarning bevosita shikastlanishi va oily asab ta`sirining buzulishi va qon tomirlari organlarning xemoretseptorlari tomonidan patologik reflekslarning tashkil topishi kuzatiladi, yurak ishining funksional buzulishlari, yurak avtoma-tizmi, qo`zg`aluvchanligi va o`tkazuvchanligini izdan chiqishi bilan namoyon bo`ladi. {1}

Ritm buzilishlarining elektrofiziologik parametrlariga asoslangan tasnif eng to`liq hisoblanadi, unga ko`ra aritmiyalar ajratiladi:

1.Elektr impulsi shakllanishining buzilishi natijasida kelib chiqadi. Ushbu aritmiyalar guruhiga nomotopik va geterotopik (ektopik) ritm buzilishi kiradi. Nomotopik aritmiyalar sinus tuguni avtomatizmining buzilishidan kelib chiqadi va ularga sinusli taxikardiya, bradikardiya va aritmiya kiradi.Ushbu guruhda sinus tugun holsizligi sindromi (STHS) alohida ajratiladi.Geterotopik aritmiyalar, sinus tugunidan tashqarida joylashgan, miokard qo`zg`alishining passiv va faol ektopik komplekslarining shakllanishi bilan tavsiflanadi.Passiv geterotopik aritmiyalar tashqi impuls paydo bo`lishi va asosiy impulsning o`tkazuvchanligi pasayishi yoki buzilishidan kelib chiqadi. Passiv ektopik komplekslar va ritm-

larga bo'lmacha, qorincha, atrioventrikulyar tugun o'tkazuvchanligi buzilishi, supraventrikulyar ritm boshqaruvchisi migratsiyasi va qorinchadalar navbatdan tashqari qisqarishi kiradi. Faol geterotopiyalarda paydo bo'ladigan ektopek impuls asosiy ritm boshqaruvchisida hosil bo'lgan impulsdan oldin miokardni qo'zg'atadi va ektopek qisqarishlar yurakning sinus ritmini «to'xtatadi». Faol komplekslar va ritmlarga quyidagilar kiradi: ekstrasistoliya (atrioventrikulyar birikmadan kelib chiqadigan, bo'lmacha, qorincha), paroksizmal va paroksizmal bo'lmagan taxikardiya (atrioventrikulyar birikmadan kelib chiqqan, bo'lmacha va qorincha shakllari), qorinchalar xilpirashi va qorinchalar qaltirashi (qorincha fibrilatsiyasi).

2. Intrakardial o'tkazuvchanlikning buzilishidan kelib chiqadigan aritmiyalar. Ushbu aritmiyalar guruhi impulsning o'tkazuvchi tizim bo'ylab tarqalishini pasayishi yoki to'xtashi natijasida yuzaga keladi. O'tkazuvchi tizim buzilishlariga quyidagilar kiradi: sinoatrial, bo'lmacha ichi, atrioventrikulyar (I, II va III daraja) blokada, qorinchalar erta qo'zg'alishi sindromlari, qorincha ichi Gis tutami oyoqchalari blokadasini (bir, ikki va uch shoxli).

3. Kombinatsiyalashgan aritmiyalar. O'tkazuvchanlik va ritm buzilishlarini birlashtirgan aritmiyalarga chiqish blokadalari, parasistoliya, atrioventrikulyar dissotsiyanish bilan bog'liq ektopek ritmlar kiradi. So'nggi o'n yillikda ma'lum bo'ldiki, klinik jihatdan aritmiyalar bolalik davridagi yurak-qon tomir patologiyalari tarkibida birinchi o'rinlardan birini egallaydi. Aritmiyalar qon aylanishi-ning buzilishi, kardiogen shok va to'satdan o'limga olib kelishi mumkin bo'lgan hayot uchun xavfli (klinik ahamiyatga ega) hisoblanadi. Bundan tashqari, yurak ritmining buzilishi ko'pincha og'ir holatlar va alomatlar bilan birga keladi ko'k-rak og'rig'i, nafas qisilishi, holsizlik, bosh aylanishi, hushdan ketish, shoshilinch yordamni talab qiladi.

Hayot uchun xavfli bo'lgan barcha yurak aritmiyalarini bradiarritmiya va taxiaritmiyalarga bo'lish mumkin. Bolalik davrida ro'y beradigan va o'limga olib keladigan bradiarritmiyalarning eng keng tarqalgan shakllari sinus tuguni holsizligi sindromi (STHS), sinus tuguni to'xtashi, idioventrikulyar ritm, turli darajadagi atrioventrikulyar blokada (AV blokadasini). O'smirlik davrida hayot uchun xavfli aritmiyalar orasida STHS tez-tez tashxis qilinadi, bu eng polimorfik, og'ir va tashxis qo'yish va davolash qiyin bo'lgan yurak aritmiyalaridan biri bo'lib, hushdan ketish va to'satdan yurak o'limi xavfi bilan bog'liq. Ushbu klinik va elektrokardiografik hodisa sinoatriyal tugunning tizimli shikastlanishini va yurak stimulyatori funksiyasini bajara olmasligini aks ettiradi. STHSning sabablari tug'ma va irsiy o'tkazuvchanlik tizimining anomaliyalari va yurak nuq-sonlari, og'ir vegetativ disfunktsiya fonida vagus impulslarning kuchayishi, kardiomyopatiya, operatsiyadan keyingi asoratlar, yurakning yallig'lanish

kasalliklari, sinoatriyal tugunning toksik shikastlanishi, neyropsik va jismoniy stress, charchash; ba'zi hollarda sababni aniqlash mumkin emas.{2}

Yurakdagi o'zgarishlar hamisha ham og'riq bilan ifodalanmaydi. Holsizlik, yuqoriga ko'tarilganda xansirash, qon bosimining ortishi yoki kamayishida yuz beradigan o'zgarishlarda hamda yurak urishiga ahamiyat bering. Mazkur jara-yonlar tashxis qo'yishda asqotishi mumkin. Agar yurak urishi izidan chiqayot-ganini sezsangiz albatta mutaxassisga uchrashing. Bilib–bilmay tinchlantiruvchi vositalar yoki biror bir dori preparatini qabul qilish mumkin emas. Yurak arit-miyasiga tashxis qo'yishda EKG tahlili, murakkab aritmiyalarda esa 24 soat da-vomida yurak faoliyatini yozib boruvchi Xolter bo'yicha EKG tekshiruvlari o't-kaziladi. Hayot uchun xavfli aritmiyalari ikki usulda davolanadi. Birinchi turi konservativ muolaja bo'lib, har bir bemor uchun antiaritmik preparatlar buyu-riladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, har bir aritmiya turi uchun o'z preparati mavjud. Dori vositalarini muntazam qabul qilishdan xoli bo'lishning chorasi esa jarrohlik amaliyotidir. Qo'shimcha yo'l bilan chaqiriladigan bo'lmachalar arit-miyasi va xilpirovchi aritmiyada kateterli radiochastotali ablyasiya (distruksiya) usuli qo'llaniladi. Bunda oyoqdan o'tadigan katta vena qon tomiri orqali kateter naychasi yurak ichiga kirib boradi. Bemor mahalliy xushsizlantirish usuli yor-damida uxlatiladi. Amaliyot yurakni ochmagan holda, monitorda muolaja qilina-yotgan a'zoni kuzatish orqali bajariladi. Kateter uchida bir vaqtning o'zida ham issiqlik ham radio chastota bo'lib, qo'shimcha yo'ldagi o'tkazuvchanlik funk-siyasi saqlangan hujayralar distruksiya qilinadi. Xilpirovchi aritmiyadagi jarrohlik amaliyoti ham kateter yordamida bajarilib, faqat murakkabroq usulda yondashi-lishi bilan farq qiladi. Aritmiya o'z vaqtida davolanmasa, kattalarda qon aylani-shi yetishmovchiligi hisobidan kelib chiqqan infarkt yoki insult, yoshlarda esa kutilmaganda xushidan ketish kabi asoratlarga olib kelishi mumkin.{3}

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Shermatov U. R. -Aritmiyalari-Academic research in modern science
- 2.Ю.А. Шастун, Н.В. Горелик, Г.С. Першина - Жизнеугрожающие аритмии у детей и подростков - Оригинальные исследования
- 3.Karimboyeva A - Aritmiyalardagi ekg o'zgarishlar - Proceedings of International Educators Conference
4. O'ktamova R. BUXORO VILOYAT AHOLISI ORASIDA YURAK QON TOMIR KASALLIKLARI TARQALGANLIGI //Journal of Healthcare and Life-Science Research. – 2024. – T. 3. – №. 10. – C. 178-180.